

**Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan
DASTURI ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT**

2024-yil 27-dekabr holatiga

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, amalga oshiriladigan kompleks choratadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijrosi
I. SIYOSATLAR VA PROTSEDURALAR					
1.	<p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari ta'minlash.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniylik, fuqarolar huquq va erkinliklari ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlagan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati, davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirish.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida, davlat dasturlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining majlislari bayonnomalarida berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishiga vazirlik tizimidagi barcha mas'ul xodimlar, shuningdek, ularning rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.</p>	yil davomida	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplyens nazorati bo'limi</p> <p style="text-align: center;">Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati, davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosi yuzasidan jamlanma ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 9-oktabrdagi 09/21-20946-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilindi.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida, davlat dasturlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining majlislari bayonnomalarida berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida ijrosi ta'minlanmoqda hamda natijalari yuzasidan jamlanma ma'lumotlar har oyning 5-sanasigacha O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilinmoqda.</p>
2.	<p>Rasmiy veb-saytda joylashtirilgan korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) doimiy va sifatli ishlashini ta'minlash.</p>	<p>Vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalarida tashkil etilgan korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining (rasmiy veb -sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) belgilangan tartibda doimiy va sifatli ishlashini nazorat qilish, zarur hollarda qayta aloqa tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Mavjud ishonch telefonlarining (Call-markaz) hamda rasmiy veb -saytlarida e'lon qilingan telefon raqamlari, shuningdek, boshqa aloqa kanallarining doimiy ravishda ishchi holatdiligini, qayta aloqaning mavjudligini va tezkorligini doimiy tekshirib borish hamda nazoratda saqlash (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023-yildagi PF-200-sonli Farmoni asosida).</p>	doimiy	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplyens nazorati bo'limi</p>	<p>Korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari</p> <p>Ishonch telefoni:+998(71)203-31-71; Murojaat bo'limi:+998(71)203-50-50 (ichki raqam 01117, 01118, 01119)</p> <p>Elektron pochta – info@imv.uz; Boshqa elektron manzillar – info@imv.uz; Telegram bot — IMV_antikorrupsiya_bot</p> <p>Havola:</p> <ul style="list-style-type: none"> • https://www.imv.uz/static/ishonch-telefoni-raqamlari ; • https://www.imv.uz/contact • https://www.imv.uz/static/korrupsiya-holatlar-haqida-xabar-berish-kanallari • https://t.me/minecofinuz/10271 ; • https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/manfaatlar-toqnashuvi-vakorrupsiya-holatlar-boyicha-xabar-berish-imkoniyati ;

3.	Korrupsiyaga oid murojaatlar (xabarlar) bilan ishlash.	<p>Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda murojaatlar bilan ishlash holati, ijro muddatlari va natijalarini har oylik tahlil hamda nazorat qilib borish.</p> <p>Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi shakllantirilgan yillik hisobotni joylashtirish.</p>	har chorakda 2024-yil fevral, 2025-yil yanvar	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Murojaatlar bilan ishlash bo'limi	<p>I. Umumiy ma'lumot</p> <p>Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 2024-yilning yanvar — dekabr oylari davomida 4421 ta murojaatlar kelib tushgan, shundan Qoraqalpog'iston Respublikasidan 128 ta, Toshkent shahridan 1301 ta, Toshkent viloyatidan 427 ta, Andijon viloyatidan 185 ta, Buxoro viloyatidan 201 ta, Jizzax viloyatidan 164 ta, Qashqadaryo viloyatidan 412 ta, Navoiy viloyatidan 149 ta, Namangan viloyatidan 219 ta, Samarqand viloyatidan 261 ta, Sirdaryo viloyatidan 107 ta, Surxondaryo viloyatidan 291 ta, Farg'ona viloyatidan 260 ta, Xorazm viloyatidan 155 ta hamda boshqa hududlardan 161 ta murojaatlarni tashkil etadi. Kelib tushish yo'nalishi bo'yicha shaxsiy va sayyor qabullar (og'zaki murojaatlar) orqali 353 tani, yozma murojaatlar 904 tani, elektron murojaatlar 3164 tani tashkil etgan. Hisobot davrida korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.</p> <p>II. Ko'rib chiqish natijalari</p> <p>Vazirlikda kelib tushgan murojaatlarni belgilangan muddatda va sifatli ko'rib chiqilishi nazoratga olingan. Kelib tushgan murojaatlarning 3442 tasi qanoatlantirilgan, 619 tasiga tushuntirishlar berilgan, 55 tasi rad etilgan va 182 tasi ko'rib chiqish jarayonida. Takroriy murojaatlar 21 tani tashkil etgan. Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yan mas'ul xodimlarga 11 ta holatda "jarima", 10 ta holatda "hayfsan" va 1 ta holatda "lavozimidan ozod qilish" jazo chorasi qo'llanilgan.</p> <p>III. Minimallashtirish choralari</p> <p>Vazirlik tizimida xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib taomillardan xabardorligini ta'minlash choralari ko'rilmogda.</p>
4.	OAV va ijtimoiy tarmoqlar monitoringini amalga oshirish.	OAV va ijtimoiy tarmoqlarda Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyati, xodimlarning xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq e'lon qilingan maqolalarni, materiallarni kuzatib borish.	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Axborot xizmati bo'limi	OAV va ijtimoiy tarmoqlarda Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyati, xodimlarning xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq maqolalar doimiy kuzatilib borilmogda.
5.	Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimning aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlarga muvofiqligini monitoring qilib borish.	Korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini monitoring qilib borish, mazkur standart talablari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini davom ettirish.	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan boshqaruv tizimi va mexanizmlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi "CERT International" tashkiloti tomonidan tashqi auditdan o'tkazilib, vazirlik tomonidan 2024-yilda ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini qo'lga kiritildi.

II. SHAXSIY NAMUNA

6.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish.	<p>Hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlarini tahliliy ko'rib chiqish, tegishli preventiv choralarni ko'rish yuzasidan topshiriq va ko'rsatmalar berish, amalga oshirilayotgan tadbirlarni nazorat qilib borish.</p> <p>Ichki tadbirlarda qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish, korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyani, fikr-mulohazalarni ochiq e'tirof etish.</p> <p>Barcha ko'rinishdagi yig'ilishlarda Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirilishida barcha xodimlar mas'ul ekanini muntazam ta'kidlab borish.</p>	har yarim yilda	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>Olib borilayotgan amaliy tadbirlar: Havola:</p> <p>https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/tadbirlar-2 https://www.imv.uz/static/korrupsiyaga-nisbatan-murosasiz-munosabatni-shakllantirish</p>
7.	OAV va tadbirlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chiqishlar o'tkazish, murojaatlar yuzasidan taklif kiritish, tadbirni tashkillashtirish.	<p>Vazirlik rahbariyatining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatini (chiqishini) o'tkazishni tashkillashtirish.</p> <p>Tadbir uchun tegishli ma'lumotlarni (tezislar, tahliliy hujjatlar va boshqa zarur materiallar) shakllantirish, tadbir dasturini ishlab chiqish va o'tkazish, shuningdek, rasmiy saytda e'lon qilish.</p>	har yarim yillikda	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Axborot xizmati bo'limi</p> <p>Ishlar boshqarmasi</p>	<p>Olib borilayotgan amaliy tadbirlar: Havola:</p> <p>https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/tadbirlar-2 https://www.imv.uz/static/korrupsiyaga-nisbatan-murosasiz-munosabatni-shakllantirish</p>

III. XAVF-XATARLARNI BAHOLASH

8.	Vazirlik va tarkibiy tuzilmalarining barcha funktsiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash.	<p>Barcha funktsiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlab, har yillik baholash o'tkazish.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajalarini (yuqori, o'rta va past) belgilash hamda xaritasini tuzish, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxatini shakllantirish.</p>	2024-yil fevral mart	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>2024-yilning 25-fevralidan 11-martga qadar vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash o'tkazildi.</p> <p>O'tkazilgan tadbir davomida tarkibiy tarmoqlar faoliyatida 2024-yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar 3 darajaga (yuqori, o'rta, past) ajratilib baholandi. Natijada, yuqori darajadagi xavfi mavjud funksiyalar mavjud emas, o'rta darajadagi 7 ta, past darajadagi 886 ta funksiyalar baholashdan o'tkazildi, shuningdek xavflarni minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.</p>
9.	Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha samarali, aniq mexanizmlar ta'sirchan choralarni ko'rish.	<p>Aniqlangan barcha xavf-xatarlardan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ("Yo'l xaritasi") ishlab chiqib, xavflarni minimallashtirish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun barcha toifadagi rahbarlar mas'ul va javobgar hisoblanadi.</p>	2024-yil aprel	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 2024-yil 21-may kuni tasdiqlangan.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarni minimallashtirish maqsadida ushbu funksiyalarga mas'ul lavozimlardagi jami 28 nafar xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha DASTUR qabul qilindi (<i>Dastur ilova qilinadi</i>).</p>

					<p>Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslar va xalqaro standartlar hamda korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha huquqbuzarliklarning ma'muriy va jinoiy javobgarligi kabi mavzular nazarda tutilgan bo'lib, korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarga mas'ul xodimlarning jami 14 soatlik o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda maxsus o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi.</p> <p>Shuningdek, joriy yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi va vazirlikning hududiy bo'linmalarida jami 483 ta korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish, korrupsion huquqbuzarlik bo'yicha javobgarlikning muqarrarligi mavzularida seminar-trening, davra suhbatlari kabi tadbirlar o'tkazildi.</p> <p>Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish hamda buxgalteriya tuzilmalarining 77 nafar xodimi ham 14 soatlik maxsus o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi (test natijalari ilova qilinadi).</p> <p>Korrupsion holatlarning oldini olish, xodimlarning bajarayotgan funksiyalaridan moddiy manfaatdorlik olishini ko'zlamasligi maqsadida vazirlikda xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha har bir xodimning ish samaradorligiga qarab rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.</p> <p>Havola: https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/tadbirlar-2/iqtisodiyot-va-moliya-vazirligi-tizimida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-dasturi-ijrosi-yuzasidan-otkazilgan-yig'ilish-togrisida</p>
10.	<p>Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan aniqlangan xavf-xatarlar sonini aniqlab, tartibga solish.</p>	<p>Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan aniqlangan xavf-xatarlar sonini aniqlab, tartibga solish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p>	doimiy	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligida 2024-yil 24-dekabr kuni vazir o'rinbosari Gulnora Raximova rahbarligida vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.</p> <p>Mazkur yig'ilishda vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limining mas'ul xodimlari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi "o'rta" deb baholangan funksiyalarni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va mas'ul xodimlari ishtirok etdilar.</p> <p>Yig'ilishda "E-anticor.uz" elektron platformasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasidagi funksiyalardan korrupsiyaviy xavf-xatarlar</p>

					<p>“o’rta” darajada baholangan funksiyalarning xavf-xatarlar darajasini minimallashtirish borasida joriy yil davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.</p> <p>Yig’ilish kun tartibidagi masala yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo’limi, Ishlar boshqarmasi, Ichki audit xizmati boshqarmasi, Kadrlarni saralash boshqarmasi va Moliya – iqtisod boshqarmasi hisobotlari tinglandi.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar “o’rta” darajada baholangan funksiyalarni bajarishda mas’ullar tomonidan vazifalar asosan kollegial tartibda oshkorlik, xolislik va shaffoflik prinsiplariga rioya qilingan holda bajarilganligi, shuningdek, davlat xaridlari “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonun talablari asosida amalga oshirilganligi qayd etildi.</p> <p>Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatar “o’rta” darajadagi funksiyalarga mas’ul bo’lgan lavozimlardagi xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 14 soatlik maxsus o’quv dasturi bo’yicha o’qitilganligi hamda joriy yil davomida vazirlik markaziy apparati va hududiy bo’linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to’qnashuvini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish mavzularida 483 marotaba seminar-trening, davra suhbatlari kabi tadbirlar o’tkazilganligi qayd etildi.</p> <p>Yig’ilishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan nazorat va monitoring ishlarini samarali va sifatli tarzda olib borilishini hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida belgilangan funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarini “past” darajada saqlanishini ta’minlash yuzasidan doimiy profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi bo’yicha tegishli mas’ullarga ko’rsatmalar berildi.</p>
--	--	--	--	--	--

IV. KORRUPSIYAGA QARSHI AMALGA OSHIRILADIGAN TARTIB-TAOMILLAR

11.	Xodimlar tomonidan manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi deklaratsiyani to’ldirish jarayonini nazorat qilish.	Vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalarda xodimlar tomonidan manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi deklaratsiyani to’ldirish jarayonini nazorat qilish, natijalari xususidagi ma’lumotlarni umumlashtirish. Ishga qabul qilishda, lavozimi o’zgarayotganda va yillik deklaratsiyani to’ldirgan xodimlarning kadrlar bo’limi tomonidan tasdiqlangan ro’yxatini shakllantirish.	2024-yil har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo’limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	<p>O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Vazirlik) tizimi xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to’qnashuvi bo’yicha to’ldirilgan yillik deklaratsiyalari tahlil qilindi.</p> <p>O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 10-iyuldagi 129-sonli buyrug’i bilan “O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida manfaatlar to’qnashuvini oldini olish bo’yicha nizom” tasdiqlangan.</p> <p>Mazkur Nizomda Vazirlik tizimida xodimlar, ishga qabul qilinayotgan nomzodlar, boshqa lavozimga o’tkazilayotgan xodimlar manfaatlar to’qnashuvlari to’g’risida deklaratsiya to’ldirishi va taqdim etishi shartligi, shuningdek, manfaatlar to’qnashuvlari to’g’risida belgilangan shakldagi deklaratsiya xodimlar tomonidan</p>
-----	--	--	-----------------------	--	--

					<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati tuzilmasiga har yili 15-fevraldan kechiktirmasdan, o'zgarishlarni hisobga olgan holda taqdim etilishi shartligi belgilangan.</p> <p>Shunga muvofiq, Vazirlik tizimida barcha xodimlar, shuningdek, ishga qabul qilinayotgan nomzodlar, boshqa lavozimga o'tkazilayotgan xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida deklaratsiya to'ldirilishi hamda manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida belgilangan shakldagi deklaratsiya har yili 15-fevraldan kechiktirmasdan, o'zgarishlarni hisobga olgan holda taqdim etilishi yo'lga qo'yilgan.</p> <p>Vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan 3 794 nafar boshqaruv (<i>markaziy apparat — 741 nafar, hududiy bo'linmalar — 3 053 nafar</i>) xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalari taqdim qilingan.</p> <p>Taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida belgilangan shakldagi yillik deklaratsiyalar tahlili natijasiga ko'ra, Vazirlik tizimida 37 ta holatda yaqin qarindoshlar mehnat faoliyatini amalga oshirayotganligi ma'lum bo'ldi hamda ushbu yaqin qarindoshlardan biri ikkinchisining bo'ysunuvidagi tuzilmada ishlamasligi va hisobdor emasligi aniqlandi.</p>
12.	<p>Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzasidan tegishli tartibga solish bo'yicha choralar ko'rish.</p>	<p>Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha ichki idoraviy normativ-hujjatlarda belgilangan tartibda choralar ko'rish, reyestrni yuritish.</p> <p>Vazirlik tizimi xodimlarini mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi haqida ogohlantirish (manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, xodimlar o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi lozim).</p> <p>Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbarlar tomonidan bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rish.</p> <p>Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish.</p> <p>Mazkur bandlarni bajarish uchun bevosita xodimlarning o'zlari va ularning rahbarlari mas'uldir.</p>	<p>doimiy, nazorat va umumlash-tirish har chorakda</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti</p> <p>Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar</p>	<p>Taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida belgilangan shakldagi yillik deklaratsiyalar tahlili natijasiga ko'ra, Vazirlik tizimida 37 ta holatda yaqin qarindoshlar mehnat faoliyatini amalga oshirayotganligi ma'lum bo'ldi hamda ushbu yaqin qarindoshlardan biri ikkinchisining bo'ysunuvidagi tuzilmada ishlamasligi va hisobdor emasligi aniqlandi.</p>

13.	Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni yo'riqnoma talablari asosida tekshirish.	Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan belgilangan tartibda tekshiruvlar o'tkazib, natijalari yuzasidan xulosalar tuzish, ma'lumotlarni umumlashtirish, o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risida xulosalar tuzish.	2024-yil har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplyens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Vazirlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-son buyruq, 11.07.2023-yil) ishlab chiqilgan bo'lib, ularga korrupsiya qarshi kurashish siyosati va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tushuntirish ishlari olib tanishtirilmoqda va har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha majburiyatlarni qayd etib borilmoqda. Mazkur tekshirishlar bo'yicha tahliliy hisobtlar E-antikor.uz platformasiga yuklandi.
14.	Vakant o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish jarayonini, rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlar joylashtirilishini, shuningdek, mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilib borilishini nazorat qilish.	Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish ishlari doirasida vakant o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish jarayonini doimiy nazorat qilish, o'tkazilgan tanlov materiallarini (suhbat yoki test bayonnomalari, video material) nazorat tartibida o'rganib chiqish, ushbu materiallarni jamlab "E-Anticor.uz" elektron platformasi joylashtirish. Rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish to'g'risidagi e'lonlar va axborotlarning mavjudligini o'rganib borish. Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilib borilishini doimiy o'rganib, nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxatini shakllantirish. Vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish doirasidagi chora-tadbirlarni (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli Qarori, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli va 2023-yil 27-noyabrda PF-200-sonli Farmonlari) ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul xodimlar va ularning rahbarlari javobgar hisoblanadi.	har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplyens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar	Mazkur band bo'yicha tahliliy xisobtlar E-antikor.uz platformasiga yuklandi. Shuningdek, Vazirlikda vakant lavozimlarga tanlov e'lon qilish va o'tkazish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida vazirlikning 2023-yil 12-iyuldagi 137-sonli buyrug'i bilan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimiga ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizom" hamda "Iqtisodiyot va moliya vazirligining tanlov komissiyasi tarkibi" tasdiqlangan bo'lib, nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "vacancy.argos.uz" platformasi orqali ishga qabul qilish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Joriy yil davomida mazkur platforma orqali 81 ta vakansiya e'longa berilgan bo'lib, (ma'lumot uchun ushbu vakansiyalar bo'yicha 4593 nafar nomzod ariza topshirgan) shundan, 58 ta vakansiya bo'yicha 58 nafar nomzod tanlov komissiyasi tomonidan munosib deb e'tirof etilib ishga qabul qilingan. Qolgan vakansiyalar bo'yicha esa nomzodlar belgilangan malaka talablariga mos kelmagan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tmagan. Vazirlikka ishga qabul qilish jarayoni ochiq, shaffof va meritokratiya tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda. Havola: https://www.imv.uz/static/bosh-ish-orinlari
15.	Yo'riqnoma asosida kontragentlarni tekshirish.	Belgilangan tartibda kontragentlarni tekshirish. Ushbu jarayonda kontragentlarni tekshirish reestri, hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlar soni xususidagi ma'lumotlarni kiritish, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalar tuzish.	doimiy, nazorat va umumlashtirish har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplyens nazorati bo'limi	Davlat xaridlari jarayonlarida inson omili ishtirokini kamaytirish maqsadida tanlash va tender savdolari majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilmoqda. Hisobot davrida insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish, xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarini kamaytirish, xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash, kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida, tizimda xarid qilish tartib-taomillari, jumladan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullari doirasida 366 ta shartnoma monitoringi amalga oshirildi.

16.	Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatining mavjudligini ta'minlash.	Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi xususida Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida belgilangan bo'lib, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatini ta'minlash. Ushbu masalaga oid ishlab chiqilgan ichki idoraviy hujjatlar ijrosini ta'minlash, tarkibiy tuzilmalarga ham tegishli tushuntirishlar berish (mazkur masalalarni tartibga soluvchi ichki reglament, xodimlar ro'yxati va statistik ma'lumotlarni tuzish).	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Yuridik departament	Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qibga olmaslik kafolati vazirlikning 2024-yil 18-dekabrda 23-237-sonli buyrug'ining 3-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi NIZOM" tasdiqlangan.
17.	Qonunchilik, mehnat qonunchiligi, odob-axloq qoidalari va ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash.	Qonunchilik, mehnat qonunchiligi, jamiyatda yurish-turish qoidalari, odob-axloq qoidalari, ichki tartib-intizom hamda ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ta'sirchan profilaktik va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Vazirlik tizimi xodimlari Qonunchilik, mehnat qonunchiligi, jamiyatda yurish-turish qoidalari, odob-axloq qoidalari, ichki tartib-intizom hamda ijro intizomiga rioya etilishi yuzasidan doimiy nazorat olib borilmoqda. Bunda: 1. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan birga Xodimlarning Odob-axloq qoidalari hamda ijki tartib-qoidalarga amal qilishi bo'yicha doimiy nazorat olib borilmoqda. 2. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi tomonidan xodimlarning ijro intizomiga rioya etishi hamda ijro hujjatlarini o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan kunlik monitoring ishlari olib boriladi. Shuningdek, ijro hujjatlarini o'z vaqtida bajarmagan xodimlar yuzasidan rahbariyatga doimiy ma'lumotlar kiritib boriladi.

V. TA'LIM VA KOMMUNIKATSIYA

18.	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va nazoratga olish.	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirish yuzasidan mashg'ulotlar, trening (umumiy va tanishuv) va boshqa tadbirlar tashkil etish.	doimiy, nazorat va umumlashtirish har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	2024-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparatda 105 ta hamda hududiy Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari 464 ta Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi. Mazkur band bo'yicha tahliliy hisoblar E-antikor.uz platformasiga yuklandi.
19.	Barcha xodimlar uchun, shuningdek, korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo'lgan funksiyalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazishni tashkillashtirish va nazoratga olish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o'qitish, korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni maxsus o'qitish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish dasturlari asosida o'qitishni (mustaqil ta'lim, ma'ruza, seminar, trening) tashkillashtirish va nazoratga olish.	yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o'qitish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan DASTURLAR 2024-yil 20-fevraldagi 28/3-10-sonli hujjat bilan tasdiqlangan. Shuningdek Mazkur band bo'yicha tahliliy hisoblar E-antikor.uz platformasiga yuklandi.

20.	<p>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik va ichki tartib-taomillardan doimiy xabardor qilib borish, ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish, mazkur masalani monitoring qilish.</p>	<p>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar bilan doimiy ravishda tanishtirib borishni tashkillashtirish va nazorat qilish.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxatini tuzish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan yakuniy monitoring natijalari bo'yicha hujjatlarni tuzish.</p>		<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o'qitish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan DASTURLAR 2024-yil 20-fevraldagi 28/3-10-sonli hujjat bilan tasdiqlangan.</p> <p>Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslar va xalqaro standartlar hamda korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha huquqbuzarliklarning ma'muriy va jinoiy javobgarligi kabi mavzular nazarda tutilgan bo'lib, korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarga mas'ul 28 nafar xodimlarning jami 14 soatlik o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda maxsus o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi.</p> <p>Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish hamda buxgalteriya tuzilmalarining 77 nafar xodimi ham 14 soatlik maxsus o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi (test natijalari ilova qilinadi).</p> <p>Mazkur band bo'yicha tahliliy hisoblar E-antikor.uz platformasiga yuklandi.</p>
21.	<p>Yil davomida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.</p>	<p>Xodimlarning mehnat faoliyatini olib borishi, xizmat safarlari va chet elga chiqish jarayonlarida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan preventiv profilaktik chora-tadbirlar (suhbatlar, seminar treninglar, ma'ruza, davra suhbat, instruktaj va boshqalar) o'tkazish.</p> <p>Ushbu masalaga doir ma'lumotlarini (tasdiqlangan ro'yxat) va tahlil natijalarini tuzish va jamlash.</p> <p>Xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish.</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlarni, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqish.</p>	doimiy	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi</p> <p>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti</p>	<p>Jami o'qitilgan xodimlar soni 1 824 nafarni tashkil etadi, xususan Vazirlik markaziy apparati — 142. Qolgan 1 682 nafar xodimlar hududiy Bosh boshqarma xodimlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi O'quv markazi tomonidan malaka oshirish kurslarida tahsil olgan. O'quv rejasiga maxsus modul (bo'lim) kiritilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorati (2 soat), davlat xizmatining tavsifi (2 soat) va odob-axloq qoidalari bo'yicha (2 soat) mavzular asosida xodimlar o'qitilib kelinmoqda. O'quv markazida 2024-yilda jami 1 682 nafar vazirlik tizimi mutaxassislari malakasini oshirdi.</p> <p>Bundan tashqari, xodimlarning mehnat faoliyatini olib borishi, xizmat safarlari va chet elga chiqish jarayonlarida jami 249 nafar xodimlar bilan huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan preventiv profilaktik chora-tadbirlar (suhbatlar, instruktaj) o'tkazildi.</p>

22.	Xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllangani, ularni o'qitish ishlari qay darajada yo'lga qo'yilganini monitoring qilib borish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi O'quv kurslarining amalga oshirilayotgan malaka oshirish kurslarining maxsus modulida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat siyosati, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, kompayens nazorati va odob-axloq qoidalari bo'yicha mavzular asosida xodimlarni o'qitish. Xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllangani, ularni o'qitish ishlari qay darajada yo'lga qo'yilganini suhbatlar, testlar, so'rovnomal va boshqa ko'rinishlarda o'rganib borish.	o'quv kurslari davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati bo'limi Vazirlik huzuridagi Budget tashkilotlari moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Joriy yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi va vazirlikning hududiy bo'linmalarida jami 483 ta korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish, korrupsion huquqbuzarlik bo'yicha javobgarlikning muqarrarligi mavzularida seminar-trening, davra suhbatlari kabi profilaktika tarzidagi tadbirlar o'tkazildi.
23.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aholining, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va amalga oshirish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida keng qamrovli profilaktik (turli ko'rinish va shaklda) tadbirlar o'tkazish. Bunda tegishli mutaxassislar, ekspertlar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari taklif qilinishi mumkin (o'tkazilgan tadbirlar yuzasidan statistik ma'lumotlar, ishtirokchilar soni, hududiy qamrov to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi).	doimiy, nazorat har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati bo'limi Axborot xizmati bo'limi	Havola: https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/tadbirlar-2
24.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.	Targ'ibot-tashviqot ishlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ko'rgazmali materiallar (metodik qo'llanmalar, prezentatsiyalar, poligrafiya materiallari, ijtimoiy audio va videoroliklar) ishlab chiqish va tarqatish.	yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati bo'limi Axborot xizmati bo'limi	Havola: https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/tadbirlar-2

VI. KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKALAR VA QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI XABARLAR. TA'SIR CHORALARI

25.	Aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar bo'yicha va monitoring natijalariga ko'ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish. Korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga nisbatan jazo qo'llash yuzasidan takliflar kiritish. Qonunbuzarlik va boshqa salbiy holatlarning oldini olish choralarini ko'rish.	Har bir korrupsiyaga oid huquqbuzarlik (tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida) xususida olingan ma'lumotlarni, murojaatlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, ishchi guruh tuzgan holda belgilangan tartibda xolisona xizmat tekshiruvini o'tkazish. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikning buzilgani to'g'risida tasdiqlangan holatlarni (qonunchilik hujjatlari kesimida), nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari (ichki hujjatlar kesimida), korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganlik holatlari yuzasidan tahlil o'tkazib, bartaraf qilish yuzasidan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish. Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ro'yxatga olish reestri, xizmat tekshiruvlari reestrini yuritish. Kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar soni hamda ularga qo'llanilgan choralar	holat yuzaga kelganda yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati bo'limi Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar	Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati bo'limi tomonidan 2024-yilda 1 ta xizmat tekshiruvi va 3 ta o'rganish o'tkazilib, faoliyatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi hamda xizmat tekshiruvi va o'rganishlar yakuni bilan tuzilgan dalolatnoma (ma'lumotnoma) va unga ilova qilingan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi.
-----	--	---	---	---	---

		ko'rsatilgan ro'yxatlarni o'rganib chiqib, tahlil qilish, shuningdek, salbiy holatga sabab bo'luvchi omillarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'rish.			
26.	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, boshqa zaruriy holatlar yuzasidan xizmat o'rganish o'tkazish.	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, xizmat o'rganishiga asos bo'luvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda belgilangan tartibda xizmat o'rganishini o'tkazish. Xizmat o'rganishida aniqlangan holatlarni tahlil qilib, bunga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etish choralarini ko'rish.	talab etilgan hollarda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Vazirlik markaziy apparatidagi barcha tarkibiy tuzilmalar va hududiy bosh boshqarmalar	Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan 2024-yilda 1 ta xizmat tekshiruvi va 3 ta o'rganish o'tkazilib, xizmat tekshiruvi va o'rganishlar yakuni bilan tuzilgan dalolatnoma (ma'lumotnoma) va unga ilova qilingan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi. Bunda tashqari hududiy bosh boshqarmalari tomonidan 2024-yilda jami 12 ta xizmat tekshiruvlari va 4 ta o'rganishlar o'tkazilgan. Jumladan, Jizzax viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvi 3 ta o'rganish, Navoiy viloyatida 1 ta xizmat tekshiruvi, Qashqadaryo viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvi 1 ta o'rganish, Samarqand viloyatida 4 ta xizmat tekshiruvi hamda Toshkent viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan.
VII. MONITORING VA NAZORAT					
27.	Korrupsiyaning oldini olishga doir ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlar uchun ma'lumotlarni jamlash, sifatli va obyektiv hisobotlarni shakllantirish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida hisobot shakllantirish. Bunda vazirlik va tarkibiy tuzilmalardagi ma'lumotlarning o'z vaqtida olinishini va jamlanishini ta'minlash, olingan ma'lumotlarni obyektivligini qayta tekshirish. Hisobot materiallari asosida reyting baholash indikatorlarini qo'yib chiqib, dastlabki baholash. Mavjud statistik hisobot shakllariga ilovalarning to'liq to'ldirish va elektron platformaga kiritish. Hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, zarurat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish.	har oyda, umumla shtirish har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida hisobot E-antikor.uz platformasiga yuklandi.
28.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va zarur hollarda esa korrektsiyalovchi tadbirlar rejasini tuzish (zarur hollarda)	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va zarur hollarda esa korrektsiyalovchi tadbirlar rejasini tuzish. Kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ishlab chiqish.	yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida UMUMIY HISOBOT UMUMIY HISOBOT E-antikor.uz platformasiga yuklandi.
29.	Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha rejadagi tadbirlarni bajarish.	Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o'z ichiga olgan) va uning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlarni o'z vaqtida tuzish. Rejaning bajarilishini muntazam ravishda oylik nazorat qilib borish, barcha belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.	har oyda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi	Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasini vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida 2024-yil 12 oylik natijalari bo'yicha UMUMIY HISOBOT da ko'rsatib o'tilgan.

VIII. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi bayoni ijrosini ta'minlash


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi

30.	Davlat xaridlarini amalga oshirish tartibtaomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibini ochiq ma'lumotlar sifatida rasmiy veb-saytga joylashtirish (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat).	Rasmiy veb-saytga joylashtirilishini va ma'lumotlar yangilanishini nazorat qilish, amalga oshirilgan tadbirlar yuzasidan ma'lumotlarni jamlash, Davlat dasturi ijrosi haqida ma'lumotlarni tuzish.	har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Axborot xizmati	Havola: https://api.mf.uz/media/menu_attachments/12_Davlat_xaridlarini_o%CA%BBtkazish_to%CA%BBg%CA%BBrisidagi_nizom.pdf
31.	Vazirlikning markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida (www.imv.uz) "Bo'sh ish o'rinlari" ruknida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-sonli Farmoni talablariga muvofiq davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalida vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalardagi barcha bo'sh ish o'rinlariga to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish jarayonini doimiy nazorat qilish.	har oyda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Havola: https://www.imv.uz/static/bosh-ish-orinlari
32.	Byurokratik to'siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirish maqsadida vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash yo'nalishidagi faoliyatini hrm.argos.uz elektron bazasi orqali amalga oshirish.	Ishga qabul qilish natijalari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirishga oid ma'lumotlarni " hrm.argos.uz " elektron platformasi kiritilishini nazorat qilish.	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti	Vazirlikda vakant lavozimlarga tanlov e'lon qilish va o'tkazish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida vazirlikning 2023-yil 12-iyuldagi 137-sonli buyrug'i bilan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimiga ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizom" hamda "Iqtisodiyot va moliya vazirligining tanlov komissiyasi tarkibi" tasdiqlangan bo'lib, nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "vacancy.argos.uz" platformasi orqali ishga qabul qilish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Joriy yil davomida mazkur platforma orqali 81 ta vakansiya e'longa berilgan bo'lib, (ma'lumot uchun ushbu vakansiyalar bo'yicha 4593 nafar nomzod ariza topshirgan) shundan, 58 ta vakansiya bo'yicha 58 nafar nomzod tanlov komissiyasi tomonidan munosib deb e'tirof etilib ishga qabul qilingan. Qolgan vakansiyalar bo'yicha esa nomzodlar belgilangan malaka talablariga mos kelmagan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tmagan. Vazirlikka ishga qabul qilish jarayoni ochiq, shaffof va meritokratiya tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda. Havola: https://www.imv.uz/static/bosh-ish-orinlari

33.	Davlat dasturining qolgan tegishli qismlarini amalga oshirish hamda ijrosini nazorat qilish.	Davlat dasturining vazirlik asosiy ijrochi va hamijrochi bo'lgan bandlarining sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash hamda ijrosini nazorat qilish.	davlat dasturlarida belgilangan muddatlar, oylik nazorat	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosi yuzasidan jamlanma ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 9-oktabrdagi 09/21-20946-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilindi.</p> <p>Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida, davlat dasturlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining majlislari bayonnomalarida berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida ijrosi taminlanmoqda hamda natijalari yuzasidan jamlanma ma'lumotlar har oyning 5-sanasigacha O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilinmoqda.</p>
-----	--	--	--	--	--

Izoh: Dasturga asosan qilingan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi ma'lumotlar E-antikor.uz platformasining tegishli indikatorlariga yuklandi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishi va
komplayens nazorati bo'limi boshlig'i**

 **F. Berdiyev**



